


## SAMARQAND VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


(2020-yil yanvar-mart oylarida)

2020-yilning yanvar-mart oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 3 268,3 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 10,8 % ga oʻsdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 572,5 mlrd. soʻmni (oʻsish surʻati 161,5 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 2 695,8 mlrd. soʻmni (oʻsish surʻati 103,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 268,4 mlrd. soʻm (2019-yilning shu davriga nisbatan 100,6 %) ni tashkil etdi.



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmi hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori koʻrsatkich Samarqand shahri (1 064,0 mlrd. soʻm), Urgut (362,3 mlrd. soʻm) va Pstdargʻom (210,6 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi. Buning sababi, ushbu hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hamda yirik savdo tashkilotlarining koʻpligidadir.

**HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO  
TOVAR AYLANMASI HAJMI**  
(2020-yil yanvar-mart oylarida) (mlrd. so'm)




**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI** (mlrd. so'm, foiz)  
(2020-yil yanvar-mart oylarida)

Hududlar nomi	Jami	%	Yirik korxonalar	%	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	%
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>3 268,3</b>	<b>110,8</b>	<b>572,5</b>	<b>161,5</b>	<b>2 695,8</b>	<b>103,9</b>
Samarqand shahri	1 064,0	116,4	457,8	171,4	606,2	93,7
Kattaqo'rg'on shahri	171,4	112,1	0,3	60,6	171,1	112,3
<i>tumanlar:</i>						
Bulung'ur	179,6	105,6	1,3	4,4 m.	178,3	105,1
Jomboy	107,2	104,2	1,2	3,2 m.	106,0	103,4
Ishtixon	128,3	103,6	3,9	6,2 m.	124,5	101,0
Kattaqo'rg'on	126,4	105,2	2,3	7,7 m.	124,1	103,6
Narpay	103,1	106,4	1,5	4,8 m.	101,6	105,2
yanvar-mart 2020-yil	<b>ULGURJI VA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI</b>					

Hududlar nomi	Jami	%	Yirik korxonalar	%	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	%
Nurobod	115,8	105,2	0,8	5,0 m.	115,0	104,6
Oqdaryo	76,6	104,2	1,6	2,4 m.	74,9	102,9
Payariq	132,7	110,2	2,1	3,2 m.	130,6	109,0
Pastdarg'om	210,6	108,1	10,0	97,5	200,6	108,7
Paxtachi	97,9	106,9	1,4	2,8 m.	96,6	106,0
Samarqand	201,0	119,5	78,8	121,1	122,2	118,4
Tayloq	95,6	105,7	1,3	6,8 m.	94,3	104,5
Urgut	362,3	110,6	7,3	98,7	355,0	110,9
Qo'shrabot	95,7	102,8	0,9	4,0 m.	94,8	102,1

2019-yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Samarqand, Kattaqo'rg'on shaharlarida va Samarqand, Urgut, Payariq, Pastdarg'om, va Paxtachi tumanlarida qayd etildi.

**HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR  
AYLANMASI O'SISH SUR'ATLARI (foizda)  
(2020-yil yanvar-mart oylarida)**




**CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI  
(2020-yil yanvar-mart oylarida)**

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 2019-yilning mos davriga nisbatan 61,5 % ga o'sdi va 572,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 17,5 % ulushiga to'g'ri keldi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 2 695,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 3,9 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 82,5 % ga teng keldi, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 268,4 mlrd. so'mni tashkil etib, viloyatdagi ulushi 8,2 % ni tashkil etdi.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING  
TUMANLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)  
(2020-yil yanvar-mart oylarida)**



Tahlil natijalariga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri (99,8 %), Qo'shrabot (99,1 %), Bulung'ur (99,3 %), Nurobod (99,3 %), Jomboy (98,9 %) va Narpay (98,6 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.


Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 17,5 % ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahrida (43,0 %), Samarqand tumanida (39,2 %) va Pstdarg'om tumanida (4,7 %) kuzatildi.

**MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASI ULUSHI, (foizda)  
(2020-yil yanvar-mart oylarida)**

2020-yil yanvar-mart holatiga chakana savdo tovar aylanmasi 3 268,3 mlrd. so'm (2019-yilning mos davri bilan solishtirganda 10,8 % ga o'sdi) va mulkchilik shakllari bo'yicha 3 267,8 mlrd. so'm nodavlat mulki (99,98 %) hamda 0,5 mlrd. so'm (0,02 %) davlat mulkiga to'g'ri keldi.

**MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASI ULUSHI, (foizda)**

2019-yil yanvar-mart




2020-yil yanvar-mart



**CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDA SHAHAR  
VA TUMANLARNING ULUSHI, (%)**  
(2020-yil yanvar-mart oylarida)

Chakana savdo tovar aylanmasida shahar va tumanlarning ulushini tahlil qilganda Samarqand shahri 32,6 %, Urgut tumani 11,1 %, Pastdarg‘om tumani 6,4 %, Samarqand tumani 6,2 % va Bulung‘ur tumani 5,5 % bilan yetakchilik qilmoqda. Buning sababi, ushbu hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hamda sanoat korxonalari ko‘pligidir. Ushbu ko‘rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko‘rinish olgan.

**CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDA SHAHAR  
VA TUMANLARNING ULUSHI, (%)**  
(2020-yil yanvar-mart oylarida)





2020-yil yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 841,3 ming so'mni tashkil qilib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 8,5 % ga ko'paydi. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2020-yilning yanvar-mart oylarida 2019-yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichlar Samarqand shahri (1 944,8 ming so'm), Kattaqo'rg'on shahri (1 911,3 ming so'm), Bulung'ur tumani (962,5 ming so'm) va Samarqand tumani (797,7 ming so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Kattaqo'rg'on (463,3 ming so'm), Tayloq (475,8 ming so'm) va Oqdaryo (481,5 ming so'm) tumanlarida qayd etildi. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan.

### **AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**

*(2020-yil yanvar-mart oylarida)*

<b>Hududlar nomi</b>	<b>Ming so'm</b>	<b>2019-yilning shu davriga nisbatan, % da</b>
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>841,3</b>	<b>108,5</b>
Samarqand shahri	1 944,8	114,7
Kattaqo'rg'on shahri	1 911,3	110,1
<i>tumanlar:</i>		
Bulung'ur	962,5	103,6
Jomboy	622,0	101,6
Ishtixon	505,6	101,4
Kattaqo'rg'on	463,3	103,2
Narpay	484,5	104,5
Nurobod	771,7	103,2
Oqdaryo	481,5	102,1
Payariq	530,5	107,7

Hududlar nomi	Ming so‘m	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da
Pastdarg‘om	595,2	105,9
Paxtachi	679,7	105,1
Samarqand	797,7	117,0
Urgut	712,8	107,9
Tayloq	475,8	103,3
Qo‘shrabot	728,3	100,6


### UMUMIY OVQATLANISH FAOLIYATINING SAVDO AYLANMASI

(2020-yil yanvar-mart oylarida)

2020-yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,4 % ni tashkil etib, 78,3 mlrd. so‘mga yetdi, yoki 2019-yilning mos davriga nisbatan 7,6 % o‘shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 92,3 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushiga to‘g‘ri kelmoqda.

### UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI TARKIBIDA YIRIK HAMDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING ULUSHI (foizda)

(2020-yil yanvar-mart oylarida)



## SAMARQAND VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



(2020-yil yanvar-mart oylarida\*)

2020-yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 389,9 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2019-yilning shu davriga nisbatan 94,8 % ni tashkil qildi. Ulgurji savdo aylanmasining yirik va kichik biznes subyektlari ulushi quyidagi ko'rinishda.

### ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR HAMDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULUSHI, (%)

2019-yil yanvar-mart

2020-yil yanvar-mart



■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes subyektlari

### Kichik biznes subyektlari hamda yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi (2020-yil yanvar-mart oylarida)

Hudud nomi	Yirik korxonalar (mln. so'm)	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes subyektlari (mln. so'm)	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>351 796,5</b>	<b>78,9</b>	<b>1 038 105,4</b>	<b>101,8</b>
Samarqand shahri	238 765,3	87,6	470 416,3	98,8
Kattaqo'rg'on shahri	64,3	134,1	22 283,3	101,8



**SAMARQAND VILOYAT  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

Hudud nomi	Yirik korxonalar (mln. so'm)	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes subyektlari (mln. so'm)	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da
<i>tumanlar:</i>				
Bulung'ur	47,7	86,5	27 780,2	101,9
Jomboy	98,2	39,2	20 017,8	99,5
Ishtixon	6 432,1	44,0 m.	13 396,3	88,6
Kattaqo'rg'on	328,7	2,7 m.	12 042,1	101,6
Narpay	5 902,3	125,7 m.	5 950,8	101,6
Nurobod	29,7	174,3	2 465,9	101,7
Oqdaryo	10 146,4	131,1 m.	63 030,0	101,6
Payariq	11 502,2	83,1 m.	36 720,4	95,3
Pastdarg'om	74 012,1	44,0	43 497,7	183,9
Paxtachi	149,9	4,1 m.	1 548,6	101,7
Samarqand	4 076,1	101,8	80 005,9	101,8
Tayloq	35,9	73,4	218 770,5	101,7
Urgut	150,5	134,8	19 316,9	101,8
Qo'shrabot	55,0	55,7	862,6	101,7

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra 1 038,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 101,8 % ni tashkil etdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 74,7 % ni tashkil qilmoqda. Yirik korxonalar esa, 351,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 78,9 % ni tashkil etdi.

\*-dastlabki ma'lumot.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel.: 66-230-45-23  
66-235-65-80**